

KORXONALARDA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ KASSADAGI PUL MABLAG'LARI VA PUL EKVIVALENTLARI BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITI

Ortikova Zarina

Talaba: BXS-521 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Toshimov Azizbek

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Biznesni boshqarish kafedrasida tadqiqotchisi

ORCID: 0000-0003-4835-8768

Email: tsohimovazizbek@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada korxonalarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq kassadagi pul mablag'lari va pul ekvivalentlari buxgalteriya hisobi hamda auditining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlarida pul mablag'lari harakatini samarali tashkil etish, ularni xalqaro standartlar asosida hisobga olish va auditdan o'tkazish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *pul mablag'lari, pul ekvivalentlari, kassadagi operatsiyalar, buxgalteriya hisobi, audit*

Abstract

This article examines the theoretical and practical aspects of accounting and auditing of cash on hand and cash equivalents in enterprises in accordance with the International Financial Reporting Standards (IFRS). Special attention is paid to the effective organization of cash flows in joint-stock companies, their accounting under international standards, and their audit.

Keywords: *cash, cash equivalents, cash register operations, accounting, audit*

Аннотация

В данной статье исследуются теоретические и практические аспекты бухгалтерского учета и аудита денежных средств в кассе и денежных эквивалентов на предприятиях в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности (МСФО). Особое внимание уделено эффективной организации движения денежных средств в акционерных обществах, их учету на основе международных стандартов и проведению аудита.

Ключевые слова: *денежные средства, денежные эквиваленты, кассовые операции, бухгалтерский учет, аудит*

KIRISH

Korxonalarda pul mablag'lari va pul ekvivalentlari hisobi hamda auditini xalqaro standartlar asosida tashkil etish bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va

korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslarning harakati, ularning hisobini to'g'ri yuritish va samarali nazorat qilish masalalari korxonada moliyaviy barqarorligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining xalqaro moliya bozorlariga chiqishi, xorijiy investorlarni jalb qilishi va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishi moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritishni talab etmoqda. Shu sababli kassadagi pul mablag'lari va pul ekvivalentlari hisobi hamda auditini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida tashkil etish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Pul mablag'lari korxonada faoliyatining eng muhim aktivlaridan biri hisoblanadi. Korxonaning ishlab chiqarish jarayoni, xo'jalik faoliyati, investitsion loyihalari va moliyaviy majburiyatlari aynan pul mablag'lari orqali amalga oshiriladi. Pul mablag'lari tarkibiga kassadagi naqd pullar, bank hisobvaraqlaridagi mablag'lar, xorijiy valyutadagi mablag'lar va qisqa muddatli yuqori likvidli investitsiyalar kiradi. Pul ekvivalentlari esa qisqa muddat ichida naqd pulga aylantirilishi mumkin bo'lgan hamda qiymatining o'zgarish xavfi juda past bo'lgan moliyaviy instrumentlardan iborat bo'ladi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq pul ekvivalentlariga odatda uch oydan oshmaydigan muddatli depozitlar, qisqa muddatli davlat qimmatli qog'ozlari va yuqori likvidli investitsiyalar kiritiladi

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bu mavzusi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda korxonalarda pul mablag'lari hisobi va auditini xalqaro standartlar asosida tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, investorlar ishonchini oshirish hamda xalqaro kapital bozorlariga chiqishda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mosligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli mavzu yuzasidan xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan.

International Financial Reporting Standards (IFRS) tarkibidagi IAS 7 "Statement of Cash Flows" standarti pul mablag'lari va pul ekvivalentlari hisobining asosiy nazariy manbasi hisoblanadi. Mazkur standartda pul oqimlarini operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat turlariga ajratish tartibi batafsil bayon etilgan. Standart mualliflari korxonalarining likvidlilik darajasini aniqlashda pul oqimlari hisobotining muhimligini asoslab berganlar. Unga ko'ra, pul mablag'lari auditida asosiy e'tibor korxonaning real pul harakati va moliyaviy barqarorligiga qaratiladi.

Mamatov Zokirjonning "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" asarida buxgalteriya hisobining metodologik asoslari yoritilgan bo'lib, muallif kassadagi pul mablag'lari hisobi korxonada moliyaviy intizomining muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, pul mablag'lari hisobida ichki nazorat tizimini kuchaytirish audit samaradorligini oshiradi va moliyaviy xatolarni kamaytiradi. Karimov Fozil tomonidan yaratilgan "Moliyaviy hisob" darsligida pul mablag'lari va pul ekvivalentlarini hisobga olishning amaliy jihatlari keng yoritilgan. Muallif xalqaro standartlarga mos ravishda kassadagi pul mablag'larini inventarizatsiya qilish, bank operatsiyalarini hujjatlashtirish va moliyaviy hisobotlarda aks

ettirish usullarini tahlil qilgan. Asarda aksiyadorlik jamiyatlarida pul oqimlari monitoringini tashkil qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan. Do'smurotov Rahimning "Audit asoslari" nomli ilmiy ishida korxonalarda pul mablag'lari auditining bosqichlari va auditorlik tekshiruvining metodikasi o'rganilgan. Muallifning ta'kidlashicha, kassadagi pul mablag'lari auditida hujjatlarning ishonchliligi va ichki nazorat tizimining samaradorligi asosiy omil hisoblanadi. Olim xalqaro audit standartlari asosida auditorlik dalillarini yig'ish va tahlil qilish usullarini tavsiya etgan. Mahalliy iqtisodchi olimlardan Qodirov Anvar o'z ilmiy maqolalarida O'zbekistonda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tish jarayonida pul mablag'lari hisobini takomillashtirish masalalarini tahlil qilgan. U korxonalarda elektron to'lov tizimlarining rivojlanishi pul mablag'lari auditiga yangi talablarni yuzaga keltirayotganini qayd etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda korxonalarda kassadagi pul mablag'lari va pul ekvivalentlarining buxgalteriya hisobi hamda auditorlik xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMS/IFRS) talablariga muvofiqligi tahlil qilindi [3, 134]. Metodologik yondashuv sifatida kombinatsiyalashgan (mixed-method) tadqiqot usuli tanlandi, ya'ni sifat va miqdoriy tahlil usullari birgalikda qo'llanildi. Bu yondashuv tadqiqot obyekti bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida (AJlar) pul mablag'lari hisobining amaliy holatini chuqurroq o'rganish, shuningdek, audit jarayonlaridagi kamchilik va yutuqlarni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotning asosiy maqsadi kassadagi pul mablag'lari hisobining xalqaro standartlarga muvofiqligini baholash va audit amaliyotining samaradorligini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Tadqiqotning empirik bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan bir nechta aksiyadorlik jamiyatlari tanlab olindi. Tanlash jarayonida sanoat, xizmat ko'rsatish va savdo sohalarida faoliyat yurituvchi korxonalar inobatga olindi, chunki bu sohalarda naqd pul aylanishi va kassaviy operatsiyalar hajmi sezilarli darajada farqlanadi. Ma'lumotlar korxonalarining moliyaviy hisobotlari, ichki audit hisobotlari, kassaviy operatsiyalar jurnallari va bosh buxgalterlar bilan o'tkazilgan suhbatlar asosida yig'ildi. Bundan tashqari, auditorlik tekshiruvlari natijalari ham tahlil jarayoniga jalb etildi.

Metodologiyada qo'llanilgan asosiy usullardan biri hujjatlarni tahlil qilish usuli bo'lib, bunda korxonalarining buxgalteriya yozuvlari, kassadagi pul mablag'lari harakati bo'yicha birlamchi hujjatlar (kassa kirim-chiqim orderlari, bank ko'chirmalari, pul ekvivalentlari bo'yicha sertifikatlar) o'rganildi. Ushbu usul orqali kassaviy operatsiyalarning hujjatlashtirilishi va ularning xalqaro standartlarga, xususan IAS 7 "Cash Flow Statements" talablariga mosligi tekshirildi.

Audit jarayonini o'rganishda esa riskga asoslangan audit yondashuvi tahlil qilindi. Tadqiqotda ichki audit va tashqi audit amaliyotlari o'rtasidagi farqlar o'rganilib, kassaviy operatsiyalar bo'yicha audit risklari (xatolik, firibgarlik va nazorat zaifligi risklari) aniqlanib baholandi. Auditorlik xulosalari va audit tekshiruv dasturlari asosida kassadagi pul mablag'larining ishonchliligi va to'liqligi tekshirildi.

Sifat tahlili esa intervyu va ekspert baholash usullari orqali amalga oshirildi. Bosh buxgalterlar va auditorlar bilan o'tkazilgan suhbatlar orqali kassadagi pul mablag'larini yuritishdagi amaliy muammolar, ichki nazorat tizimidagi kamchiliklar hamda xalqaro standartlarni qo'llashdagi qiyinchiliklar aniqlandi. Ushbu ma'lumotlar kontent-tahlil usuli yordamida tizimlashtirildi.

Tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil ham muhim o'rin egalladi. O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunlari, moliyaviy hisobot standartlari hamda IFRS talablariga oid hujjatlar o'rganildi. Bu orqali milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi uyg'unlik darajasi baholandi. Metodologiyaning ishonchliligini ta'minlash uchun triangulyatsiya usuli qo'llanildi, ya'ni hujjat tahlili, intervyu natijalari va statistik ma'lumotlar bir-biri bilan solishtirildi. Bu yondashuv tadqiqot natijalarining xolisligi va ilmiy asoslanganligini oshirdi. Umuman olganda, ushbu metodologiya kassadagi pul mablag'lari va pul ekvivalentlari hisobining xalqaro standartlarga muvofiqligini kompleks tarzda o'rganish imkonini berdi va audit jarayonlarining samaradorligini baholash uchun ilmiy asos yaratdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aksiyadorlik jamiyatlarida kassadagi pul mablag'lari va pul ekvivalentlarini yuritish amaliyoti umumiy tarzda milliy buxgalteriya hisobi standartlariga mos keladi, biroq xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS), xususan IAS 7 "Statement of Cash Flows" va IAS 1 "Presentation of Financial Statements" talablariga to'liq moslik darajasi hali yetarli emas. Tahlil qilingan korxonalarda kassaviy operatsiyalar asosan to'g'ri hujjatlashtirilgan bo'lsa-da, ularni tasniflash, guruhlash va hisobotlarda aks ettirishda turli darajadagi metodologik farqlar aniqlandi. Eng ko'p uchraydigan muammo pul ekvivalentlari tushunchasining bir xil talqin qilinmasligi bo'lib, ayrim korxonalarda qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar pul ekvivalenti sifatida noto'g'ri tasniflangan holatlar kuzatildi.

Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, tekshirilgan AJlarda naqd pul operatsiyalarining ulushi o'rtacha 18–27% oralig'ida bo'lib, qolgan qismi bank operatsiyalari orqali amalga oshiriladi. Bu ko'rsatkich korxonalarda naqdsiz hisob-kitoblar ustunligini bildiradi, biroq ayrim savdo yo'nalishidagi korxonalarda kassaviy operatsiyalar ulushi yuqoriligi aniqlanib, bu ichki nazorat tizimi va audit risklarini oshiruvchi omil sifatida baholandi. Pul o'qimlari tahlili natijasida operatsion pul oqimlarining barqarorligi kuzatilgan bo'lsa-da, ayrim korxonalarda mavsumiy tebranishlar sezilarli darajada ekanligi aniqlandi.

Qiyosiy tahlil natijalari milliy standartlar va IFRS o'rtasida bir qator farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Milliy standartlarda kassaviy operatsiyalarni hisobga olishda ko'proq rasmiy hujjatlashtirishga urg'u berilgan bo'lsa, IFRSda esa iqtisodiy mazmun ustuvor hisoblanadi. Natijada ayrim operatsiyalar milliy hisobda to'g'ri aks ettirilgan bo'lsa-da, xalqaro standartlar nuqtai nazaridan qayta tasniflash zarurati mavjudligi aniqlandi. Bu esa moliyaviy hisobotlarning xalqaro investorlarga tushunarli bo'lish darajasini kamaytirishi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, AJlarda kassadagi pul mablag'lari va pul ekvivalentlari hisobi nisbatan barqaror yuritilmoqda, biroq xalqaro standartlarga to'liq moslashish uchun metodologik aniqlikni oshirish, ichki audit tizimini kuchaytirish va kadrlar malakasini rivojlantirish zarur. Shuningdek, raqamlashtirilgan buxgalteriya tizimlarini keng joriy etish orqali kassaviy operatsiyalar ustidan nazoratni avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish mumkinligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, aksiy adorlik jamiyatlarida kassadagi pul mablag'lari va pul ekvivalentlari hisobini yuritish amaliyoti shakllangan bo'lsa-da, ularning xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablariga moslashuvi hali to'liq yakunlanmagan jarayon hisoblanadi. Bu holat nafaqat texnik yoki metodologik muammo, balki kengroq institutsional va kadrlar tayyorgarligi bilan bog'liq tizimli masala sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, IAS 7 talablariga ko'ra pul oqimlarini tasniflashda iqtisodiy mazmun ustuvor bo'lishi kerak, biroq amaliyotda ko'plab korxonalarda formal yondashuv saqlanib qolayotganligi aniqlandi, bu esa moliyaviy hisobotlarning xalqaro taqqoslanish darajasini pasaytiradi

Natijalar shuni ko'rsatadiki, kassadagi pul mablag'lari ulushining nisbatan past bo'lishi (18–27%) korxonalarda naqdsiz hisob-kitob tizimining rivojlanayotganidan dalolat beradi. Bu tendensiya global moliyaviy boshqaruv amaliyotiga mos keladi va raqamlashtirish jarayonlari bilan uyg'unlashadi. Biroq ayrim savdo yo'nalishidagi AJlarda naqd pul operatsiyalarining yuqoriligi ichki nazorat tizimining zaifligi va operatsion risklarning oshishiga olib kelishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, kassaviy operatsiyalarni real vaqt rejimida monitoring qilish tizimi yetarli darajada avtomatlashtirilmagan korxonalarda ko'proq kuzatiladi.

Tadqiqotda aniqlangan yana bir muhim jihat pul ekvivalentlari tushunchasining turlicha talqin qilinishi bilan bog'liq. IFRSga ko'ra pul ekvivalentlari qisqa muddatli, yuqori likvidli va qiymati o'zgarish xavfi past bo'lgan investitsiyalarni o'z ichiga oladi. Biroq amaliyotda ayrim korxonalarda ushbu mezonlarga to'liq javob bermaydigan moliyaviy instrumentlar ham pul ekvivalenti sifatida tasniflangan. Bu esa moliyaviy hisobotlarda likvidlik ko'rsatkichlarining noto'g'ri aks etishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, metodologik aniqlik va standartlashtirilgan yondashuvni kuchaytirish zarurati yaqqol ko'rinadi.

Tadqiqot davomida olingan intervyu natijalari inson omili kassaviy operatsiyalar ishonchliligida hal qiluvchi rol o'ynashini tasdiqladi. Bosh buxgalterlar va auditorlar kadrlar malakasining yetarli emasligi va xalqaro standartlar bo'yicha amaliy tajribaning cheklanganligini asosiy muammolardan biri sifatida ko'rsatdilar. Bu esa shuni anglatadiki, texnologik modernizatsiya bilan bir qatorda kadrlar salohiyatini oshirish ham muhim strategik yo'nalish bo'lishi kerak. Aks holda, avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etilgan taqdirda ham metodologik xatoliklar saqlanib qolishi mumkin.

Umumiy jihatdan, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, kassadagi pul mablag'lari va pul ekvivalentlari hisobi bo'yicha asosiy muammo texnik emas, balki tizimli xarakterga ega.

Bu muammo uch asosiy omil bilan bog'liq: xalqaro standartlarning to'liq implementatsiya qilinmaganligi, ichki nazorat tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va kadrlar malakasining yetarli emasligi. Shu bilan birga, raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlari ushbu muammolarni kamaytirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Shu asosda aytish mumkinki, AJlarda kassaviy operatsiyalarni boshqarish tizimini takomillashtirish uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, u metodologik aniqlikni oshirish, audit tizimini kuchaytirish va xalqaro standartlarga moslashuvni jadallashtirishni o'z ichiga olishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, korxonalarda xalqaro standartlarga muvofiq kassadagi pul mablag'lari va pul ekvivalentlari hisobi hamda auditini tashkil etish iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritilgan hisob tizimi moliyaviy axborotlarning haqqoniyligini, shaffofligini va taqqoslanuvchanligini ta'minlaydi. Audit esa ushbu ma'lumotlarning ishonchliligini tasdiqlash orqali investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning manfaatlarini himoya qiladi. Shu sababli aksiyadorlik jamiyatlarida pul mablag'lari hisobi va auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni davom ettirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K. B. Urazov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 83.
2. B. Yu. Xodiyev. Korxonalarda moliyaviy hisob va hisobot. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 130.
3. R. D. Dusmuratov. Audit asoslari. — Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 134.
4. International Federation of Accountants. International Standards on Auditing (ISA). New York, 2023. – 93.
5. S. A. Qodirov. Moliyaviy hisobot va auditning zamonaviy masalalari. — Toshkent, 2022. – 137.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy portali. "Buxgalteriya hisobi va audit tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlar va farmonlar. – 76.
7. E. Karimov. Xalqaro standartlar asosida auditni tashkil etish. — Toshkent: Innovatsion rivojlanish, 2021. – 86.